

O'ZBEK TILIM-IFTIXORIM

G'ULOMOV JAVOHIR ALISHER O'G'LI.

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI

FAKULTETI 103 - GURUH TALABASI

"Til millat ma'naviyati va madaniyatining toshoynasidir. Modomiki, millatning o'z tili bor ekan, demak, uning dunyoga aytar so'zi ham bordir."

Til- har bir millatning qalbi, g'ururi, mustaqillik belgisi, kelajagi. Tilsiz hech bir millat to'laqonli xalq bo'la olmaydi. Usiz Vatanning erki yo'q. Shu qatorda o'zbek tili ham millatimizning faxri, dunyo tan olishiga sabab bo'lgan aloqa vositasidir. Sobiq Ittifoq davrida ardoqlagan ana shu muqaddas tilimiz qog'ozda bor bo'lsada, amalda yo'q edi. Biz ko'p yillar ajdodlarimiz muloqot qilgan ko'plab tarixiy asarlar yaratgan tilimizdan mosuvo yashadik. Vanihoyat 1989-yil 21-oktyabr kuni O'zbekiston tarixiga zarhal harflar bilan bitildi. Biz Mustaqillik sari ilk qadamni tashladik va xalqimizning necha yillik orzulari ijobati, o'z tilimizga ega bo'ldik. O'sha davr nigohi bilan qaraydigan bo'lsak O'zbek tilining davlat tili deb e'lon qilinishi haqiqiy jasorat va ma'naviy inqilob edi.

O'zbek tili jahondagi eng boy va go'zal tillardan biridir. O'z ona tilimizga erishish naqadar qiyin bo'lgani barchamizga ma'lum. Shunday ekan ona tilimizni asrab, avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir. Biroq hozirgi davr nigohi bilan qaralsa,

o'zbek tili jar yoqasiga kelib qolganini ko'rishimiz mumkin. Eng achinarlisi buning sababchilari o'zimizdir... Ayni damda o'z ona tilimizni globallashuv jarayonida boshqa tillardan kirib kelayotgan "ajoyib" so'zlar bilan boyitib bormodamiz. "Ok", "Yeah", "Ladno", deb har ikki gapni birida shu so'zlarni ishlatayotgan yoshlar, aytayotgan so'zlari qanday ma'no anglatishini, qaysi tilga mansubligini ham bilmaydilar.

Xo'sh, bu holat zamonaviylikning bir ko'rinishimi? Yoki do'stlarimiz orasida bir nechta chet tilidagi so'zlarni bilishimiz bilan maqtanishmi?

Zamonaviylik aytayotgan so'zlarimizda emas balki, o'ylayotgan fikrlarimizda namoyondir. Do'stlarimiz orasida maqtanishni xohlasak, bemalol bir nechta chet tillarini o'rganaylik va erkin suhbatlashaylik.

O'zbekiston ko'chalarida sayohat qilar ekanmiz bir qator reklama va e'lonlar e'tiborimizni tortadi. Nimaga rus tilida o'zbek tilida emas? Axir biz O'zbekistonda yashayapmiz, milliy tilimiz mavjud. Undan tashqari turli tashkilot va kompaniyalar tomonidan mobil aloqa vositamizga rus tilida lekin lotin alifbosida yozilgan xabarlar ham kelib turadi. Bularning barchasi ona tilimizning o'z qiymatini yo'qotishiga sabab bo'lmoqda. Har yili dunyoda bir nechta tillar yo'qolib ketadi. Bizning adabiy til me'yorlariga va nutq madaniyatiga amal qilmasligimiz o'zbek tilining ham mana shunday tillar safiga kirishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aziz yoshlar, aka-uka, opa-singillarim milliy tilimiz kelajagi bizning qo'limizda, ona tilimizni asrab avaylash har birimizning insoniylik burchimizdir.

Har bir millatning mavjudligi, yashayotganini namoyon etadigan omillar bo'ladi. Til ana shunday mavjudlik hodisasidir. Til shunchaki so'zlashish vositasi emas. Til millat

ma'naviyati va madaniyatining toshoynasidir. Modomiki, millatning o'z tili bor ekan, demak, uning dunyoga aytar so'zi ham bordir. Shu tiriklik dunyosining bir qismi o'laroq asrlar osha jahonga o'z so'zimizni aytib keldik. U uzoq asrlar naridan goh O'rxun Enasoy bitiklari, goh "Devoni turk", goh "Qutadg'u bilik" bo'lib jaranglab turibdi. Chunki bu tilni ne-ne ulug' zotlar tengsiz zakosi va fidoiyligi bilan asrab keldilar, sayqalladilar.

Zero, Vatanning chegaralari qay darjada himoyaga muhtoj bo'lsa uning ma'naviy boyliklari ham shu qadar himoyaga muhtojdir. Shu ma'noda milliy tilimiz qarshisida har doim mas'uliyatli bo'lish majburiyatidamiz. Milliy tilimiz jozibasi, imkoniyatlari va muammolari haqida gapirish uchun 21-oktyabrni kutish shart emas. Modomiki u bizning siyratimiz ko'zgusi, ruhimiz tarjimoni, tarbiyamiz hosilasi ekan unda unga hayot-mamot masalasi sifatida qarashga o'rganishimiz lozim. Zero, O'zbek tili-bizning iftixorimizdir!